

OMON MUXTOR ROMANLARIDA DINIY DUNYOQARASHNING AKS ETISHI

*O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati
Guliston davlat universiteti "Adabiyotshunoslik"
yo'nalishi tayanch doktoranti
Yuldosheva Umida*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Omon Muxtorning badiiy asar yaratishdagi mahorati imkon qadar ko'rsatib berilgan. Bunda muallifning diniy va dunyoviy fikrlari va mushohadalari ham o'z aksini topgan. Maqolada Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla", "Ayollar mamlakati va saltanati" romanlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Badiiy mahorat, diniy dunyoqarash, hermenevtika, diniy hikoyatlar, munojatlar.

ОТРАЖЕНИЕ РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В РОМАНАХ АМОН МУХТОР

Абстрактный. В данной статье максимально показаны навыки Амона Мухтара в создании художественного произведения. В ней также нашли отражение религиозные и светские мысли и наблюдения автора. В статье анализируются романы Амона Мухтара «Четыре Тан Кибла», «Страна женщин и королевство».

Ключевые слова. Художественное мастерство, религиозное мировоззрение, герменевтика, религиозные рассказы, молитвы.

REFLECTION OF THE RELIGIOUS WORLD VIEW IN THE NOVELS OF AMON MUKHTOR

Abstract. In this article, the skills of Amon Mukhtar in creating an artistic work are shown as much as possible. The author's religious and secular thoughts and observations are also reflected in it. The article analyzes Amon Mukhtar's novels "Four-Tang Qibla", "The Country of Women and the Kingdom".

Keywords. Artistic skills, religious outlook, hermeneutics, religious stories, prayers.

Omon Muxtor ijodida diniy dunyoqarashning yetakchi ahamiyatga egaligi yaqqol sezilib turadi. Shu sababli ham, muallif asarlarining tushunilishi bir qadar murakkabdir. Omon Muxtor asarlarini tahlil qilishda hermenevtik yondashuv ham yaxshi samara beradi, asarni to'g'ri tushunishni osonlashtiradi. "Hermenevtika murakkab va chalkash ma'noli matnlarni tushunish san'ati hamda uni ilmiy talqin qilish tamoyillari haqidagi nazariy fandir" [1-337]. Muallifning deyarli, har bir asarida bosh qahramonlar o'zlarini taftish qilib turishadi. "To'rt tomon qibla" trilogiyasi va "Ayollar mamlakati va saltanati" romanlarining qahramonlarida ham bu holat ochiq-oydin namoyon bo'ladi. "Ming bir qiyofa" romanidagi Abdulla Hakim, "Ko'zgu oldidagi odam" romanidagi Valijon, "Tepalikdagi xaroba" asaridagi Mirza G'olib o'zligini, botinidagi menini ko'ra olgan kishilardir. Asardagi diniy mushohadalar ikki xil tarzda shakllantirilgan:

1. Muallif yoki qahramon nutqi orqali hikoya qilingan;
2. Muallifniki bo'lmagan nutq orqali, ya'ni qahramonning ichki nutqi va ruhiy holati vositasida yuzaga chiqarilgan mushohadalar.

Muallif yoki qahramon nutqi orqali hikoya qilingan mushohadalar:

- hikoyatlar;
- munajatlar;
- hikmatli gaplarni o'z ichiga oladi.

"Ko'zgu oldidagi odam" romanida muallif "Zahhok va Iblis" hikoyatini keltirgan:

"Huzurida yurib, o'zini shirin taomlar bilan siylagan iblisga shoh bir kuni iyib, tila tilagingni, debdi. "Menga hech narsa kerak emas, - debdi Iblis. – Faqat muborak ikki kiftingizni o'pib qo'ymoqchiman!" zahhok rozi bo'libdi. Iblis uning yalang'och yelkalaridan o'pibdi. Keyin shohning ikki yelkasidan ikki ilon o'sib chiqibdi. Ular Zahhokning miyyasini kemirmoqchi bo'lishar, Zahhokb endi talvasga tushganicha odamlarni so'yib, ularning miyyasi bilan ilonlarni boqib-tinchitar ekan..." [2-244].

Ushbu rohamda, ayniqsa, muallifning diniy g'oyalari yetakchilik qiladi. Asarda real obraz sifatida, bevosita Iblis obrazi ham gavdalantirilgan:

“Men unga orqadan razm solib qaradim va birdan... boyagi yigitlardek uning ham qandaydir ko'kish alangani eslatayotgani, orqasi va oyoqlari gavdasiga nisbatan kattaroq ekanligini payqadim.

- Iblis! – deb yubordim beixtiyor. – Bu Iblisku, axir!” [2-297].

Masjid, so'fi Mutavalli ota (“Bu kishi shu yerda so'filikdan qorovullikkacha barcha vazifani bajaradi” [2-238]) obrazlari, diniy suhbat va nasihatlar ham kiritilgan:

“Gunohlaringizni anglabsiz, o'g'-li-im, qolgani o'tadi, – dedi beozorlik bilan Mutavalli ota. – Haqiqat Haq so'zidan. Unga yetish kerak! Mushkul paytlar tilovat qiling!” [2-258].

Ushbu romandagi ismlar ham ramziydir. Mutavalli ismi arabcha bo'lib, masjid va madrasalarga tegishli mulklarni idora qiluvchi ma'nosini anglatadi. Valijon ismi ham arabcha bo'lib, eng yaqin do'st, Avliyo, taqvodor degan ma'nolarni anglatadi. Muallifning o'zi ham “unda bir valoyat, valiylik bor” [2-423] – deganda alohida xislat, Allohga yaqinlik borligini nazarda tutgan.

Ushbu romanda muallif munjotlarga ham keng o'rin bergan va ularga badiiy g'oya yuklagan.

“Ojiz, notovon bandangga o'zing shafqat qil, Xudoyim! Sen G'ofur va Rahonsan! Rahimsan! Qodirsan!” [2-179]

“Osiy bandangga o'zing shafqat qil, Xudoyim! Sen G'ofur va Rahonsan! Rahimsan! Qodirsan! Ichim yonib ketyabdi. Qachongacha bu azob?! Ortiq chidayolmayman! O'lib o'lolmadim. Yashab yashayolmayapman... Nima qilay?! Qayerga boray?! Sendan boshqa panohim yo'q...” [2-257].

Valijonga otasidan qolgan qaysidir kitobdan o'qigan hikmatlarini ham eslab o'tadi:

“...Borilishi man etilgan joylarga borma. Zolimlar va haromxo'rlar uyiga borma.

Qimorxon va xarobot kabi noloyiq, tuxmat joylarga borma.

Nomahramlar orqasidan qadam tashlama. Borma...

...Ko'zni har qanday nomahramni ko'rishdan man etmoq kerak.

Ko'zni shahvat qo'zg'ovchi hattoki suratlardan ham asramoq kerak!" [2-243].

"Ayollar mamlakati va saltanati" romanida esa Olim quyidagi hikmatni eslaydi: "Ollohning eng suyuk payg'ambari shunday marhamat qilgan: "Ayol – mamlakatning asosi! Ayolning baxti – mamlakatning baxti! Ayolning halokati esa, mamlakatning halokatidir!" [3-110] ("Sarina" kitobidan) "Ming bir qiyofa" romanida esa "Go'r azobi" deb nomlangan bob bo'lib, unda muallif inson o'lganidan keyin sodir bo'ladigan voqealarni Abdulla Hakim qismati bilan ifodalab berishga harakat qiladi. Albatta, buning uchun faqat fikrlab, ijod qilishning o'zi kamlik qiladi. Diniy bilim bu o'rinda juda muhimdir. "Odam o'lganda, adatda, jismning hayoti tugaydi, jon, ruh abadiy qolaveradi" [2-32]

"Ana, qabr ustidagi oxirgi kishi ham yetti qadam uzoqlashgandek bo'ldi.

Shu payt qabr ichi birdan yorishdi. Jasad yotgan tor joy o'z-o'zidan negadir ancha kengaydi.

Ayni soniyada bexosdan lahad ichida ikkita xushro'y yigit jonlanishdi...

Yo'q, drahol xushyor tortdi: bular xushro'y yigitlar qiyofasida kelgan farishtalar bo'lishlari kerak! Odamlar Munkar-Nakir, deb gapirib yurishardi!" [2-46].

"Sening boshqalar bilan ishing bo'lmasin, osiy banda. Har kim o'zi uchun o'zi javob beradi. Olloh barcha narsaga guvohdir. U oshkor narsalarni ham, pinhon narsalarni ham biladi. U hamma narsani eshitguvchi, bilguvchidir!.." [2-48].

Ushbu fikrlar faqatgina muallifga tegishli emas, azaldan shunday diniy qarashlar xalqimizga yod bo'lib ulgurgan. Muallif shu fikrlarni diniy asosga tayanib, qayta ishlagan.

Muallifniki bo'lmagan nutq orqali, ya'ni qahramonning ichki nutqi va ruhiy holati vositasida yuzaga chiqarilgan mushohadalar ko'proq ruhiy holat bilan bog'liqdir.

"Tepalikdagi xaroba" romanining bosh qahramoni Mirza G'olib quyidagilarni o'ylar edi:

“BUTUN BORLIQ abadiy TIRIK birgina VUJUDdan iborat: biz aksar, ruhimiz nopok ekanligidan, BUNI payqamay, adashib-uloqib umrimiz umrimiz o‘tmayotganmikan?!” [2-405]

“Qochma yolg‘izlik faqat birovlar emas, senga ham tegishli. Dunyoga yolg‘iz kelgansan, yolg‘iz ketasan... nega insonni bunday yaratgansan, ey Xudo?! Ko‘p bo‘lib yashasa hamki, o‘z ahvolini tushunib, o‘z hoyoti bobida bir kuni o‘zi javob bersin uchunmi?! Boshqalarga gunohini ag‘darmasin uchunmi?! Tavba...” [2-356].

“Ko‘zgu oldidagi odam” romanida ham Valijon o‘zini-o‘zi ko‘p taftish qiladi:

“Azaldan muhabbat asosi – gunoh; u gunohdan to‘qilganmikan?! Balki, muhabbatning o‘zi haromdir?! Balki, faqat xilqatga muhabbat kerakdir. Shunday! Shunday... Ammo ishq-muhabbat bo‘lmasa, dunyoda nima qoladi?! Yovuzlik, bir-biriga nafrat ko‘payib-kuchayib ketmaydimi?! Xoliq o‘zi yaratmaganmi ezgulikni?! Go‘zallikka chorlamaganmi?! Ilohning yaratmishlarini ham sevmoq kerak...” To‘g‘ri... Biroq bu yerda gap shunchaki muhabbat ustida emas! Boshqa... “Shayton tanadagi qon kabi...” Buni oqlab bo‘lmaydi!” [-244]. Omon Muxtorning asrlarini o‘qigan kitobxon nafaqat undan ma’naviy ozuqa oladi, balki diniy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi. Muallifning bosh qahramonlari Toshtemir, Valijon, Mirza G‘olib kabi o‘zligi va qilgan ishlari haqida fikr yuritishga majbur bo‘ladi. Omon Muxtorning bunday tipdagi qahramonlarni yaratishidan ham asl maqsadi shu bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. “Badiiy tahlil asoslari”. T.: Kamalak, 2016.
2. Omon Muxtor “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.
3. Omon Muxtor “Ayollar mamlakati va saltanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.
4. uz.m.wikipedia.org